



## **EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF CHILDREN IN NEED OF LONG-TERM TREATMENT**

Isamukhamedova D.R.

Nizami State Technical University Department of Surdopedagogy and

Clinical Fundamentals of Special Pedagogy Assoc. Prof. (PhD)

Faculty of Primary Education 2nd year student

Kamolova N.L.

**Abstract:** This article is based on the knowledge obtained as a result of the in-depth study and analysis of sources and literature related to hospital pedagogy, about "Mehrli Maktab" and the group of students studying in it, including the activities of "Mehrli Makbat" established in the territory of the republic today. . That is, the main content of the article is the scope of knowledge given to students studying in "Mehrli Maktab" in the subject of mother tongue and literature and the issue of increasing students' devotion to science.

**Key words:** hospital pedagogy, loving school, long-term treatment, children in treatment, method, pedagogical and psychological influence, psychological support.

**Nizomiy nomidagi TDPU  
Surdopedagogika va  
Maxsus pedagogikaning klinik asoslar kafedrasи  
Dots. v. b. (PhD) Isamuxamedova D.R.  
Boshlang'ich ta'lif fakulteti  
2-bosqich ta'labasi  
Kamolova N.L.**

### **UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALARNI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

**dildoraisamuxamedova@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola gospital pedagogika sohasiga oid manba va adabiyotlarni chuqur o'rghanish va tahlil qilish natijasida olingan bilimlar asosida «Mehrli maktab» va unda ta'lif oluvchi o'quvchilar jamoasi haqida, jumladan, bugungi kunda respublika hududida tashkil etilgan «Mehrli maktabning faoliyati, bu muassasada ta'lif olayotgan o'quvchilarning qiziqishlari, xususan, ona tili va adabiyot faniga bo'lgan munosabati hamda bu fanga nisbatan qiziqishlarini mavjud



holatidan yana yuqoriroq natijaga chiqarish bo'yicha amaliy harakatlar haqida fikr-mulohaza yuritadi. Ya'ni, maqolaning asosiy mazmuni «Mehrli maktab»da tahsil oluvchi o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan beriladigan bilimlar doirasi va o'quvchilarning fanga ixlosini oshirish masalasidir.

**Kalit so'zlar:** gospital pedagogika, mehrli maktab, uzoq muddatli davolanish, davolanishdagi bolalar, metod, pedagogik va psixologik ta'sir, ruhiy madad.

**Аннотация:** Данная статья основана на знаниях, полученных в результате углубленного изучения и анализа источников и литературы, связанных с госпитальной педагогикой, о «Мехрли Мактабе» и группе обучающихся в нем студентов, в том числе о деятельности «Мехрли Мактаб». Мактаб создан сегодня на территории республики. То есть основным содержанием статьи является объем знаний, предоставляемых студентам, обучающимся в «Мехрли Мактаб», по предмету «родной язык и литература» и проблема повышения преданности студентов науке.

**Ключевые слова:** госпитальная педагогика, любящая школа, длительное лечение, дети, находящиеся на лечении, метод, педагогико-психологическое воздействие, психологическая поддержка.

Ushbu tadqiqot shifoxona pedagogikasini professional o'qitish amaliyotining yangi yo'nalishi sifatida o'rganishga qaratilgan. Maqolada pedagogik amaliyotning ushbu ikki yangi yo'nalishini bibliografik tahlil qilish orqali o'qituvchining dastlabki shakllanishi haqida ham fikr yuritiladi, uning amaliyotining bir nechta muassasalar faoliyatidagi dolzarbli o'rganiladi [1]. Manbalarda shunday ta'kidlangan, tibbiyot ixtisosligi bitiruvchisi profilaktika ishlari olib bora olishi kerak: fizik ko'rsatkichlarni o'rganish va bolalarning aqliy rivojlanishi va o'smir kontingentlari va baholash ularning tibbiy ahamiyatini tavsiflash; unga tayinlangan tibbiyot xodimlari va qo'l ostidagilarning ishini tashkil qilish; [6 ]. Ushbu maqola kasalxonaga yotqizilgan kattalarning yaxlit sog'lig'ini va talaba-bemor, kasalxona va shahar iqtisodiyoti uchun ijobjiy reflekslarni rivojlantirishga yordam berish uchun shifoxona pedagogikasining afzallikkari va aragogik parvarishlarini taqdim etishga qaratilgan. U ta'limning tarixiy kontekstida shifoxona pedagogikasining muhim rolini ko'rib chiqadi va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun Milliy umumiy asosiy o'quv dasturi - BNCC tomonidan o'rnatilgan o'quv komponentlari bilan boyitilgan tarzda loyihalar va dialoglar orqali ishlaydigan emansipatsion va gumanistik metodologiyaga asoslanadi. va qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash va talabaning bog'lanishi[ 2]. Sog'lik uchun mo'ljallangan hamma narsa sotib olish va sotish uchun tovarga aylandi. Bunday sharoitda eng muammoli masala klinik pedagogikaga aylandi. Hech kim uni sotib olmaydi va shuning uchun uni hech kim sotmaydi. Bundan tashqari, tibbiy amaliyotga kasalliklarni tashxislash, davolash va hatto prognozlash uchun avtomatik tizimlarning keng joriy etilishi klinik tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyojni yo'qotdi [4]. Maktabda tahsil oluvchilarga ta'lim berish uchun



avvalo, gospital pedagogikadan to‘liq xabardor, bolalarni sevuvchi, har qanday holatda ham ularga suyanch va sirdosh do‘sit bo‘la oladigan, eng asosiysi, gospital pedagogikaning maqsad va vazifalarini to‘liq anglagan holda ta’lim jarayonlarini mazmunli tashkil eta oladigan pedagog xodimlar tanlab olingan. Maktabda faoliyat olib borish istagini bildirgan pedagoglarga alohida gospital pedagogikadan saboq darslari — maxsus treninglar tashkil etilganligi ham tahsinga sazovor[3]. Pedagogikaning ushbu yo‘nalishini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi idoralararo mansubligi bilan belgilanadi: ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya, — chunki kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan bola birinchi navbatda bemor, ikkinchidan — o‘quvchi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish keng qamrovli reabilitasiyani anglatadi. Davolanish bilan birga ta’limga qaytish onkologik kasalligiga chalingan bola uchun ijobiy taassurot qoldirishi mumkin, ammo shu bilan birga u sinfdoshlari orasida yo‘qligi, tengdoshlari bilan muloqotning uzilishi, davolanishning nojo‘ya ta’sirlari, zaiflik bilan kurashish zarurati kabi qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Bolaga onkologik kasallik tashxisi qo‘yilganda, uning eng yaqin qarindoshlari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishadi, ular jismoniy, ruhiy salomatlik va farovonlik nuqtai nazaridan hayot sifatini pasaytiradi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni yomonlashtiradi. Shuning uchun, gospital ta’lim onkologik kasalligiga chalingan bolalarningva ularning yaqin qarindoshlarini ruhiy va emosional holatini yaxshilash, qo‘llab-quvvatlashi uchun xizmat qiladi. Gospital ta’lim o‘quvchilarining yuksak ma’naviyatli, barkamol avlod etib tarbiyalash, o‘quvchilarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Maktab bolaning to„laqonli reabilitatsiya bo„lishi, moslashishi va ijtimoiylashishiga, bu jarayonda ota-onalar ham qatnashishiga xizmat qilmoqda. Gospital maktab uchun pedagog va psixologlar tanlov asosida tanlab olingan, ular gospital pedagogika bo„yicha maxsus treninglardan o„tgan. O‘qituvchi va murabbiylar jamoasi tibbiy xodimlar bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Bolalardagi immunitet tanqisligini hisobga olib, maktab o„ziga xos tibbiy talablarga muvofiq jihozlangan, gipoallergen materiallar bilan ta“minlangan. O‘quv jarayonida faqatgina elektron darsliklar va har bir o‘quvchiga alohida biriktirilgan kitoblardan foydalanimoqda [6]. Bilamizki, ushbu maktabning asosiy vazifasi bolalar bilan individual ishlashdir. Shuni hisobga olgan holda "Mehrli maktab"da fizika fanini o‘qitish, avvalambor, o‘quvchilarni zamonaviy fizika yutuqlari bilan tanishtirishni, ushbu fanning ilmiy-texnik taraqqiyotda tutgan o‘rni va rolini ko„rsatib berishni hamda o‘quvchilar ongida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni taqozo qiladi. Fizika tabiatdagi hodisa va voqealarni hamda ularning qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. Inson ham tabiatning bir bo“lagi sifatida u bilan bevosita, doimo munosabatdadir. Tabiatdagi hodisalarining sirini bilish, ularning qonuniyatlarini aniqlash. asosan, insoniyatning yashash sharoitini yaxshilash maqsadida olib boriladi [7]. Ushbu maqola neyropedagogika va neyropsixologiya yo‘nalishida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida pedagogik va psixologik jarayonlarni inson bosh miyasida sodir bo‘ladigan neyrologik o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan o‘rganish, ya’ni neyrologiyaning pedagogika va psixologiya bilan sinergizmi – 1997-yilda alohida



fan sifatida yuzaga kelishi hamda individ, subyekt va shaxsni ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan bilimlarining umumiyligini sohasida yanada shakllanishi haqida fikrlar bayon etilgan [5]. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, gospital maktablarda o'qigan o'quvchilarning 85 foizi o'z qiziqishlari va orzulari haqida so'zlab bergan bo'lsa, maktabga qatnamagan bemor bolalarning 10tadan faqat 2 tasigina kelajak rejalar haqida so'zlab bergan. Mazkur tadqiqot ham gospital ta'lim va gospital maktabning bemor bolalar hayotida naqadar muhimligini ko'rsatib beradi. Shunday ekan, gospital maktab o'quvchilariga mukammal emas, hayotdan xursand pedagog kerak. Aynan shunday pedagoglar ularni zavq bilan maktabga kelishga va ishtiyoy bilan bilim olishga undaydi. Gospital pedagogika sohasi bugungi kunda rivojlanish jihatidan dolzarblikni talab qilmoqda. Bu bemor bolalarning keyingi hayotida to'siqlarga uchramasliklari jihatidan ham muhim jarayondir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Célia Maria Pacheco Cruz. **Тюремная и больничная педагогика: новые перспективы профессиональной деятельности педагога//** Revista Científica Multidisciplinar Núcleo do Conhecimento. – 2020.– Vol. 07. –P. 71-86. ISSN: 2448-0959.
2. Geania Moreira ALVES. **Чткий взгляд на педагогическую практику в больничных помещениях: Андрагогика//** Revista Científica Multidisciplinar Núcleo do Conhecimento. –2020. –V. 22. –C 05-34. ISSN: 2448-0959.
3. Hakimova N. Gospital maktab o'quvchilarini ona tili va adabiyot faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.// Science and innovation international scientific journal. – 2022. – V. 1. ISSN: 2181-3337
4. Гусев И. А. Ключевые этапы развития госпитальной педагогики в рамках модели проекта госпитальных школ России «УчимЗнаем» // Наука и школа. 2022. № 1. С. 149–161.
5. Ahmedova M.T., Narmetova Y.K. Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatid.// Society and innovations. – 2022. –V. 02. ISSN 2181-1415.
6. Alimova N.I., Tursunova D.Z., Turakulova N.B. Gospital ta'limda dars tashkil qilish // Iqro jurnali 2023.-C 2181-4341.
7. Alimova N.I., Xoliquulova D.Sh. "Mehrli maktab" da fizika fanini o'qitishni individuallashtirish metodikasi".// Science and innovation international scientific journal –2022. –V. 1 ISSN: 2181-3337